IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 20 Issue 01 April 2026

ZIKR – AXLOQNI SAYQALLOVCHI KUCHLI VOSITADIR

Sohiba Rahmonova
Imom Buxoriy nomli Toshkent Islom instituti
bakalavr bosqichi 4-kurs talabasi
Tel: +998930702352

Jamiyat hayotida insonlarni xulqlarini belgilaydigan va insonlararo munosabatlarni tartibga solishda bir qancha an'anaviy vositalar mavjud. Xususan, davlat tomonidan o'rnatilgan qonun va tartib-qoidalar insonni tashqi tomondan jilovlab tursa, ta'lim-tarbiya jarayonlari uning ongi va tafakkurini shakllantiradi. Biroq, ushbu vositalarning barchasi ko'proq insonning tashqi xulq-atvorini nazorat qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'pincha qalbning chuqur qatlamlarigacha yetib bora olmaydi.

Islom dinida axloqni sayqallashning eng tub va samarali vositasi sifatida zikr tushunchasi bor. Zikr deganda biz til bilan Alloh taoloni yod etish, xulq atvorda esa uning go'zal ism va sifatlarini namoyon qilish tushuniladi. Masalan, Allohning "as-Salom" ismi salomatlik, ofiyat, tinchlik beruvchi degan ma'noda kelsa, al-Aziz ismi esa izzat , quvvat , g'oliblik ma'nosini anglatadi. Bu ismlarlan bandalar axloqni sayqallash uchun avval tilga, so'ngra qalbga, axloqga ko'chirishimiz kerak. Zikr bilan band bo'lgan inson nafaqat jamoat joyida, balki xoli qolganda ham "Alloh meni ko'rib turibdi" degan yuksak mas'uliyat (muroqaba) hissi bilan yashaydi. Bu esa jamiyatda tashqi nazoratchilarsiz ham o'z-o'zini idora qila oladigan, halol va vijdonli shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyatdagi ko'plab axloqiy muammolar va nizolar bevosita til madaniyatiga borib taqaladi. Zikr amaliyoti tilni bema'ni so'zlar, g'iybat va haqorat kabi illatlardan tozalab, uni go'zal kalomlarga odatlantiradi. Tilning poklanishi esa qalbning poklanishiga, qalb poklanishi esa o'z navbatida insonning fe'l-atvori va ijtimoiy muomalasining sayqallanishiga olib keladi.

Allohning zikri avvalambor tilga ko'chadi so'ngra qalbga boradi, va qalbni poklashni boshlaydi. Alloh taolo Qur'oni karimda zikrga buyuradi.

تَكْفُرُون وَلاَ لِي وَاشْكُرُواْ أَذْكُرْكُمْ فَاذْكُرُونِي

"Bas, Meni yod etingiz, Men ham sizlarni yod etaman. Menga shukr qilingiz, noshukrchilik qilmangiz!" *(Baqara surasi, 152-oyat)*[1].

Zikr Alloh taoloni yod etish bo'lsa, shukr – berlgan ne'matlarni haqqini ado etishdir. Musulmonlarga berilgan eng katta ne'mat esa, iymondir. Iymon bu dinning asosidir. Alloh taolo iymon keltirgan bandalariga doimo O'zini eslatib turishi bilan iymonlarini ziyoda qilishni va ularni o'ziga qaytishini xoxlaydi. Demak, Alloh Taoloni zikr qilish bilan, ham iymonni mustahkamlash, ham ne'matga shukr keltirish, ham axloqni sayqallash mumkin ekan.

عَظِيمًا وَأَجْرًا مَّغْفِرَةً لَهُم اللَّهُ أَعَدَّ وَالذَّاكِرَاتِ كَثِيرًا اللَّهَ وَالذَّاكِرِينَ...

"...Allohni ko'p zikr qiluvchi erkaklar va (Allohni ko'p) zikr qiluvchi ayollar — Alloh ular uchun mag'firat va ulug' ajrni tayyorlab qo'ygandir" *(Ahzob 35)*[2].

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – J. I. – B. 180.

[2] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – J. IV. – B. 465.

Alloh taolo bu oyatida erkaklar va ayollarni barobar zikr qilishga buyurdi. Demak, bundan bilamizki, erkak va ayollar zikr qilish va boshqa ibodatlarda barobar ekanlar. Boshqa jamiyatlardagi kabi, bizning jamiyatda ham, erkaklarni ayollardan Afzal ekanligi tushunchasi bor. Albatta, Qur'oni karimda ham erkaklar ayollarni ustidan boshqaruvchi ekanliklari haqida keladi. Lekin, asosiy masala, bandalar qachonki Alloh Taolo buyurgan xulq bilan xulqlansalargina, Allohga mahbub banda bo'lib, uning abadiy ne'matlariga erisha oladilar.

Zikr faqat tasbeh o'girish emas, balki tilni yomonlikdan tiyishdir, axloqni sayqallashdir, go'zal xulqli bo'lishdir. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: «Kishi tili bilan Allohni zikr qila turib, so'ng o'sha tili bilan odamlarni la'natlashi (haqorat qilishi) joiz emas» *(Imom Tabaroniy rivoyati)*[3].

انا و بي عبدي ظن عند انا : وجل عز الله يقول وسلم عليه الله صلى الله رسول قال قال عنه الله رضي هريرة ابي عن
شبرا اليّ اقترب ان و منه خير ملاء في ملاءذكرته في ذكرني ان و نفسي في ذكرته نفسه في ذكرني فان يذكرني حين معه
\الترمذي و الشيخان رواه هرولة اتيته يمشي اتاني ان و باعا اليه اقتربت ذراعا الي اقترب ان و ذراعا اليه تقربت

Zikrning naqadar ulug' ibodat ekani va uning bandaga beradigan mislsiz yaqinligi haqida Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadisi qudsiyda go'zal tarzda bayon etilgan. Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar:

"Alloh azza va jalla: "Men bandam Men haqimda nima gumon qilsa, o'shandoqman. U Meni zikr qilgan chog'da, Men u bilanman. Agar u Meni yolg'iz zikr qilsa, Men ham uni yolg'iz zikr qilaman. Agar u Meni jamoat ichida zikr qilsa, Men ham uni uning jamoatidan yaxshiroq jamoat ichida zikr qilaman. Agar u Menga bir qarich yaqinlashsa, Men unga bir arshin yaqinlashaman. Agar u Menga bir arshin yaqinlashsa, Men unga bir quloch yaqinlashaman. Agar u Men tomon yurib kelsa, Men u tomon yugurib boraman", dedi". *(Imom Buxoriy, Imom Muslim va Imom Termiziy rivoyati)*[4].

Eng go'zal xulq bu Rosulullоh *(alayhis salom)*ning xulqlaridir. Alloh Taolo Quroni Karimda marhamat qilib:

"Albatta siz buyuk xulq uzradirsiz[5]".

deya marhamat qiladi.

Sa'd ibn Hishom ibn Omir *(roziyallohu anhu)* Oisha *(roziyallohu anho)* so'raganlarida, u kishi shunday javob berganlar:

"اَلْقُرْآنَ خُلُقُهُ قَانَ"

"U zotning xulqlari Qur'on edi" dedilar.

Qur'on esa eng buyuk zikrdir. Barcha buyuk xulqlar Qur'oni karimda keltirilgan. Endi zikrning samaralari haqida gapiriladigan bo'lsa, ular juda ko'p bo'lib, quyida 15 tasini sanab o'tiladi.

---

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot: Zikr, duolar, istig'for va tavba. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2023. – J. XXXV. – B. 72.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol (1-jild). – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2017. – B. 180.

[4] 1 Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – J. VIII. – B. 235. (Tavhid kitobi, 7405-hadis).

[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – J. VI. – B. 400.

1. Zikr shaytonni quvadi va savalaydi.
2. Zikr Alloh taoloni rozi qiladi
3. U Alloh taoloning muhabbatini hosil qildiradi.
4. Zikr Alloh taologa qurbat (yaqinlik) paydo qiladi. Banda qancha ko‘p zikr qilsa, Allohga shuncha yaqin bo‘ladi.
5. Zikr zokirga o‘zini kuzatib borishni (muroqabani) o‘rgatadi. Bu bilan u ehson eshigidan kiradi va Alloh taologa Uni ko‘rib turgandek ibodat qiladi.
6. U zokirga Alloh taologa qaytishni (tavbani) o‘rgatadi.
7. Zikr zokirga ma’rifat eshigini keng ochadi.
8. Zikr tufayli Alloh zokirni zikr qiladigan bo‘ladi.
9. U tufayli qalb tirik bo‘ladi.
10. U qalb va ruhga quvvat bag‘ishlaydi.
11. U banda bilan Robbi orasidagi judolikni ketkazadi.
12. Zikr Alloh taoloning azobidan qutqaradi.
13. Zikr sakina (xotirjamlik) va rahmatning tushishiga sababdir.
14. Zikr majlislari — farishtalar majlislaridir.
15. U zokirni ham, uning hamsuhbatini ham saodatmand qiladi[6].

Alloh taolo ga yaqinlashtiruvchi til bilan ado etiladigan amallarning avvali va fazilatlisi uni zikr etish bo‘lib, u Qur’oni karimning suralarida tilga olingan. Alloh taolo uni zikr etgan bandalarini yaxshilik bilan yod etib shunday marhamat qiladi:

فَاذْكُرُونِي أَذْكُرْكُمْ وَاشْكُرُواْ لِي وَلاَ تَكْفُرُونِ

“Bas, Meni eslangiz, Men ham sizlarni eslayman. Menga shukr qilingiz va Meni inkor qilmangiz!” *(Baqara, 152)*[7].

وَمَنْ أَعْرَضَ عَن ذِكْرِي فَإِنَّ لَهُ مَعِيشَةً ضَنكًا وَنَحْشُرُهُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ أَعْمَى

“Kim mening eslatmamdan yuz o‘girsa, bas albatta uning uchun tang-baxtsiz hayot bo‘lur va biz uni qiyomat kuni ko‘r holda tiriltirurmiz”. *(Taho, 124)*[8].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari ta’kidlaganlaridek, zikr — bu bandaning o‘z Xoliqini eslashi bo‘lib, u ruhning ozuqasi va qalbning sayqalidir. Hazrat o‘z asarlarida zikrning axloqqa ta’sirini quyidagi bosqichlarda tushuntirib berganlar:

1. G‘ofillikdan uyg‘onish va hushyorlik

[6] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya: Poklanish. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – J. I. – B. 129.

[7] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – J. I. – B. 312. (Baqara surasi, 152-oyat).

[8] Taho surasi, 124-oyat: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol", 3-juz. "Hilol-Nashr" nashri.

Inson xulqidagi kamchiliklarning asosi — g‘ofillikdir. Hazrat aytadilar: "Zikr qalbni uyg‘otadi. G‘ofil qalb o‘lik qalbdir. Qachonki inson tili va qalbi bilan Allohni zikr qilsa, unda 'huzur' paydo bo‘ladi." Bu hushyorlik insonni har bir gapirayotgan gapi va qilayotgan ishiga mas’uliyat bilan yondashishga o‘rgatadi. Ya’ni, Allohni eslagan odam boshqaga yomon so‘z aytishdan, birovning haqqiga xiyonat qilishdan hayo qiladi[9].

2. Qalbning poklanishi va go‘zal sifatlar bilan bezanishi

"Ruhiy tarbiya" kitobida keltirilishicha, inson qalbi zanglaydigan temirga o‘xshatiladi. Uni faqat zikr va istig‘for bilangina artib, yaltiratish mumkin. Qalb zangidan (kibr, hasad, adovat, baxillik) xalos bo‘lgan sayin, uning o‘rnini go‘zal axloq — tavoze’, saxovat va mehr-oqibat egallaydi. Zikr qiluvchi insonning ichki dunyosi tartibga tushadi, bu esa tashqi olamda go‘zal muomala bo‘lib namoyon bo‘ladi[10].

3. Nafsni jilovlash va sabr

Hazrat zikrni nafsga qarshi kurashdagi eng o‘tkir qurol deb ataganlar. "Zikr bandaga o‘z nafsini nazorat qilishni o‘rgatadi," deydi Shayx hazratlari. Axloqning asosi bo‘lmish g‘azabni tiyish, sabrli bo‘lish va og‘ir vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik bevosita zikrning samarasidir. Allohni ko‘p eslovchi inson hayotiy qiyinchiliklarda tushkunlikka tushmaydi, odamlar bilan bo‘lgan munosabatda esa bag‘rikeng bo‘ladi[11].

[9] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya: Poklanish. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – J. I. – B. 145.

[10] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot: Zikr, duolar, istig‘for va tavba. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. – J. XXXV. – B. 15.

[11] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya: Tiklanish. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – J. II. – B. 210.